



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi
Ilmiy-uslubiy jurnal
Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi

Jurnal O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligining
2023-yil 1-martdagi № 066379-
raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga
olingan va O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasi rayosatining 2025-
yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori
bilan ro'yxatdan o'tkazilgan
hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha
dissertatsiyalarning asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga
kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center"
MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

31.03. 2026.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnituruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)
L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)
Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.
Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD). dots.
Toshqulov A.H. – i.f.d, prof.
Absamatov A.E. – i.f.d., dots.
Ruzmetov B. – i.f.d. prof.
Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.
Ro'ziyev O.A. – i.f.n., dots.
Otamurodov Sh.N. – i.f.d., dots.
Shodiyev A.A. – i.f.d., dots.
Bakirov P.U. – f.f.d., prof.
Qodirov U.D. – p.f.d., prof.
Turopova S.K. – f.f.d., dots.
Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots
Yarmatov Sh.CH. – i.f.f.d (PhD).
Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).
Absamatov As.E. – i.f.f.d (PhD)
Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).
Xoliyorov E.Ch. – f-m.f.n., dots.
Esanov A.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Xudoyberdiyev U.T. – t.f.f.d. (PhD)
Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD), dots v.b.
Xayrullayev I.N. – f-m.f.n., dots.
Bozorov S.B. – f.f.f.d. (PhD)
Sattarova Y.A. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Eshkurbanov S.B. – t.f.f.d. (PhD), dots.
Saloxitdinova N.M. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Madiyeva M.Y. – f.f.f.d. (PhD), dots.
Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD), dots.
Yormatov F. J. – t.f.n., dots.
Xoshimxo'jayeva M. –f.f.f.d. (PhD), dots.
Ismoilov B.T. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Salomov G'. Y. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Uralova O. P. – f.f.d (DSc), dots.
Xolov O.Ch. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Usmonov M. Q. – p.f.f.d. (PhD), dots.
Abdusamatov A.S. - p.f.f.d. (PhD). dots.
Norkulova Sh. T. – f.f.f.d. (PhD)
Shoturayev J. – p.f.f.d. (PhD).
Abduraxmanov A.Y. – t.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

N.A. ABDURAIMOVA, M.N. KARIMOVA

Tadbirkorlik subyektlarida moliyalashtirishni takomillashtirish asosida aholi bandligini ta'minlashning iqtisodiy tahlili.....5

N.A. ABDURAIMOVA, M.T. RO'ZIYEVA

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning amaldagi holati tahlili.....10

G.A. AXMETOVA

O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini baholash omillari.....16

S.R. BOYPO'LATOV

Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda innovatsion va raqamli texnologiyalarning roli.....21

M.SH. CHORIYEVA

Eksport salohiyatidan samarali foydalanish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish omillari.....26

N.X. DO'SMUXAMEDOVA

Nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini samarali yuritish omillari.....32

B.A. ERDANAYEV

Hududiy rivojlanishda drayver tarmoqlarning o'рни va ularni shakllantirishning nazariy-amaliy asoslari37

N.N. ESHQULOVA, SH.B. ABDUNABIYEV

Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasi va xizmatlar eksporti dinamikasi tahlili.....42

M.X. KURBOSHEVA

Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik subyektlarini kreditlashning nazariy-metodologik asoslari.....47

O.J. MURODOV, H.I. G'ULOMOV

Paxta tozalash korxonalarida moliyalashtirish-innovatsiya uzilishi: O'zbekiston agroklastarlari misolida empirik tahlil.....52

SH.S. MUZRAPOVA, N.S. MUZRAPOVA

Ekonometrika ta'limida interaktiv va amaliy matematika asosidagi yondashuvlarning samaradorligini baholash.....59

Z.M. NORALIYEVA

Qishloq joylarni rivojlantirish va aholi turmush sifatini yaxshilashda kichik biznes samaradorligini oshirish yo'llari.....66

A.P. PARDAYEV

O'zbekiston bank tizimini strategik transformatsiya jarayonining tahlili.....74

J.R. SAYFIYEV

Agile transformatsiya jarayonidagi kutilayotgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari.....77

A.A. SHODIYEV, B.A. SHODIYEV

Qurilish tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari.....82

B.E. TURAYEV

Iqtisodiy o'sish omillarini kobb-duglas modeli asosida ekonometrik baholash.....89

Z.I. XAKIMOV

Qishloq xo'jaligida innovatsion faoliyatni moliyalash yo'nalishlari.....93

N.A. XAKIMOVA

Fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab - quvvatlashda subsidiya amaliyotini takomillashtirish.....98

SH.D. XAYDAROVA

Maishiy xizmatlar sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari.....103

L.L. XAYRULLAYEVA

Iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yashil iqtisodiyot yondashuvi va an'anaviy iqtisodiy model.....107

Y.Z. XUDAYAROVA

Asalarichilik samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni lasso regression modeli asosida tahlil qilish.....112

R.A. XURRAMOV

Hududlar kesimida eksport mahsulotlarining daromadlilik darajasini prody indeksi asosida statistik tahlil qilish.....116

G.A. YUSUPOV

Uzoq muddatli aktivlarda adaptiv amortizatsiya usuli.....122

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....126

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....134

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....137

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqealik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....140

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....144

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....147

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish150

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....153

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....157

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....160

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....164

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....169

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....173

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....176

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....180

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....187

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....190

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA

Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....194

G'A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....198

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....202

SH.T.YAKUBOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik madaniyat shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....205

N.B.RAUPOVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabatini shakllantirish metodikasi ("Qutadg'u bilig" va "Hibat ul-haqoyiq" dostonlari namunalari misolida).....208

M.SH.BURIYEVA

The role of code-switching in Uzbekistan's diverse society: identity and cultural exchange.....213

Z.M.ALLAYEV

Traditions of dream interpretations in linguoculturology.....218

Z.F.ERGASHEVA, G'Y.SALOMOV

Ona-tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning axborot bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi.....221

L.A.RAIMOV

A comparative analysis of ai and human translation in advertising texts.....225

A.A.QARAQULOV

Mengziyo Safarov qissalarida ona-tabiatning poetik manzarasi.....229

N.A.UMAROVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar darslarida loyiha faoliyatini tashkil etish nazariyasi va metodikasi.....234

M.T.MENGNAROVA

Ingliz va O'zbek tillaridagi rang komponentli maqollarda madaniy birliklarning ahamiyati.....238

I.B.JURAEV

The effect of authentic materials on vocabulary acquisition in english classes.....242

D.A.BADALOV


Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda, klaster metodida yondashish.....248

F.J. YARMATOV, T.J. YARMATOV

Dostonchilik an'analari shakllanishining tarixiy asoslari.....252

M.O.BEGALIYEVA

Pattakesar.....257



Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası o'qituvchisi
Do'smuxamedova Nozima Xamidulla qizi
E-mail: nozima_dosmuxamedova@tues.uz
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti talabasi
Boboyorova Sevinch Ulug'bek qizi
E-mail: nozima_dosmuxamedova@tues.uz

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI SAMARALI YURITISH OMILLARI

ANNOTATSIYA

Maqolada nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini samarali yuritishning asosiy omillari atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida xarajatlarni to'g'ri tasniflash, ularni faoliyat yo'nalishlari bo'yicha aniq hisobga olish hamda maqsadli mablag'lardan oqilona va samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ichki nazorat tizimini takomillashtirish, buxgalteriya hisobida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda hisob jarayonlarini avtomatlashtirishning ahamiyati yoritib berilgan. Xarajatlar hisobining shaffofligini ta'minlash nodavlat notijorat tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish va donorlar hamda manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlashga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: nodavlat notijorat tashkilotlari, xarajatlar hisobi, moliyaviy shaffoflik, ichki nazorat, buxgalteriya hisobi, maqsadli mablag'lar.

ФАКТОРЫ ЭФФЕКТИВНОГО ВЕДЕНИЯ УЧЕТА ЗАТРАТ В НЕГОСУДАРСТВЕННЫХ НЕКОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЯХ

АННОТАЦИЯ

В статье проводится всесторонний анализ факторов эффективного ведения учета расходов в не-государственных некоммерческих организациях. В ходе исследования особое внимание уделяется правильной классификации расходов, их точному учету по направлениям деятельности, а также рациональному и целевому использованию финансовых ресурсов. Рассматриваются вопросы совершенствования системы внутреннего контроля, применения современных информационных технологий и автоматизации бухгалтерского учета. Обеспечение прозрачности учета расходов обосновывается как важный фактор повышения финансовой устойчивости негосударственных некоммерческих организаций и укрепления доверия доноров и заинтересованных сторон.

Ключевые слова: Негосударственные некоммерческие организации, учет расходов, финансовая прозрачность, внутренний контроль, бухгалтерский учет, целевые средства.

FACTORS FOR EFFECTIVE COST ACCOUNTING IN NON-GOVERNMENTAL NON-PROFIT ORGANIZATIONS

ABSTRACT

The article provides a comprehensive analysis of the factors contributing to the effective management of expense accounting in non-governmental non-profit organizations. The study focuses on the proper classification of expenses, accurate recording of costs by areas of activity, and the efficient and targeted use of financial resources. In addition, the importance of improving internal control systems, applying modern information technologies, and automating accounting processes is highlighted. Ensuring transparency in expense accounting is substantiated as a key factor in enhancing the financial sustainability of non-profit organizations and strengthening the trust of donors and other stakeholders.

Keywords: Non-governmental non-profit organizations, expense accounting, financial transparency, internal control, accounting, targeted funds.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida nodavlat notijorat tashkilotlar (NNTlar) ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim subyekti sifatida tobora kuchayib bormoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, NNTlar aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlarini kengaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro tashkilotlar baholashlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlarda notijorat sektor yalpi ichki mahsulotning sezilarli qismini shakllantirib, millionlab ish o'rinlarini yaratmoqda [1].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon miqyosida NNTlar faoliyatining kengayishi ularning moliyaviy resurslarini boshqarish, ayniqsa xarajatlar hisobini samarali va shaffof yuritish masalasini dolzarb muammoga aylantirdi. Donor mablag'lari, grantlar va xayriya tushumlarining maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish talabi bugungi kunda xalqaro moliyaviy institutlar va donor tashkilotlarning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, xarajatlarni to'g'ri tasniflash, ularni faoliyat yo'nalishlari bo'yicha aniq hisobga olish va moliyaviy hisobotlarda ochiq aks ettirish NNTlar barqaror faoliyatining muhim omili sifatida qaralmoqda [2].

Ilg'or xorijiy tajribada nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini yuritish maxsus standartlar, ichki nazorat tizimlari va avtomatlashtirilgan buxgalteriya axborot tizimlari orqali amalga oshiriladi. Masalan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida va AQShda NNTlar uchun moliyaviy hisobotning shaffofligini ta'minlash donorlar ishonchini mustahkamlash va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishning asosiy vositasi sifatida e'tirof etiladi [3]. Bu holat mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini yanada oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada nodavlat notijorat tashkilotlari soni izchil oshib bormoqda. Adliya vazirligi va ochiq axborot manbalari ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimizda 8 900 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyat yuritmoqda [4]. Ularning asosiy qismi jamoat birlashmalari, jamoat fondlari va nodavlat muassasalar bo'lib,

ijtimoiy soha, ta'lim, madaniyat va xayriya yo'nalishlarida faoliyat olib bormoqda.

Shu bilan birga, NNTlar faoliyatida moliyaviy resurslardan foydalanish samaradorligi va xarajatlar hisobining shaffofligini ta'minlash masalasi dolzarbligicha qolmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunida xarajatlar buxgalteriya hisobining alohida obyektlari sifatida belgilangan bo'lib, ularni hisobot davrida to'liq va ishonchli aks ettirish talabi qat'iy belgilangan [5]. Mazkur talablarning amaliyotda to'liq bajarilishi NNTlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, donorlar va manfaatdor tomonlar ishonchini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli, nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini samarali yuritish omillarini aniqlash, ularni takomillashtirish yo'llarini ilmiy asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini samarali yuritish omillarini aniqlash va ularni takomillashtirish yo'llarini asoslashga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks tarzda foydalanildi.

Xususan, tahlil va sintez usullari orqali nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini tashkil etishning nazariy asoslari, normativ-huquqiy talablari hamda amaliy jihatlari chuqur o'rganildi. Ushbu usullar xarajatlarni tasniflash, ularning faoliyat yo'nalishlari bo'yicha hisobga olinishi va moliyaviy natijalarga ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda taqqoslash (komparativ) usuli qo'llanilib, xorijiy mamlakatlar va O'zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini yuritish amaliyoti o'zaro solishtirildi. Bu usul orqali ilg'or xalqaro tajribalar aniqlanib, ularni milliy hisob tizimiga moslashtirish imkoniyatlari baholandi.

Shuningdek, induksiya va deduksiya usullari yordamida alohida fakt va kuzatuvlardan umumiy xulosalar chiqarildi hamda nazariy qoidalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Xarajatlar hisobini samarali yuritishga ta'sir etuvchi omillar umumlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilindi.

Empirik tahlil jarayonida normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish usulidan foydalanilib,



O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni, buxgalteriya hisobi milliy standartlari hamda tegishli me'yoriy hujjatlar asosiy axborot manbai sifatida xizmat qildi. Shuningdek, rasmiy statistik ma'lumotlar va ochiq axborot manbalari asosida tahliliy xulosalar shakllantirildi.

Bundan tashqari, mantiqiy tahlil va tizimli yondashuv usullari orqali xarajatlar hisobi, ichki nazorat va moliyaviy shaffoflik o'rtasidagi bog'liqlik ochib berildi hamda nodavlat notijorat tashkilotlarida xarajatlar hisobini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va Muhokama. 2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari 270,4 trillion so'm, xarajatlari esa 312,9 trillion so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan [6]. Ushbu ko'rsatkichlar asosida budjetda quyidagi defitsit mavjud:

$$D e f i t s i t = X a r a j a t l a r - D a r o m a d l a r = 312,9 - 270,4 = 42,5 \quad (1)$$

Defitsit mavjudligi davlatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash va strategik maqsadlarni amalga oshirish uchun mablag'larni oqilona taqsimlash zaruratini ko'rsatadi. Bu holat, shuningdek, davlat moliya boshqaruvini kuchaytirish, xarajatlar samaradorligini oshirish va budjet resurslarini maqsadli ishlatishni talab qiladi. Shu bilan birga, defitsit iqtisodiy o'sish sur'atlarini rag'batlantirish va ijtimoiy tadbirlarni moliyalashtirish uchun davlatning qarz olish imkoniyatlarini ham ko'rsatadi [7].

Tahlil va natijalar. Budjet xarajatlarining yarimidan ko'pi, ya'ni 151,5 trillion so'm ijtimoiy yo'nalishlarga yo'naltiriladi. Bu mablag'lar ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, fan, madaniyat va sportni rivojlantirish, shuningdek muhtoj aholini uy-joy bilan ta'minlash kabi sohalarga sarflanadi. Ijtimoiy xarajatlarning katta ulushi, aholining hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan davlat siyosatining markaziy unsuridir.

1-jadval

Davlat budjeti xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilishi

Yo'nalish	Xarajatlar, trillion so'm	Foiz (%)
Ta'lim	40,0	13
Sog'liqni saqlash	35,0	11
Ijtimoiy himoya	30,0	10
Fan, madaniyat, sport	20,0	6
Uy-joy va boshqa ijtimoiy tadbirlar	26,5	8
Jami ijtimoiy xarajatlar	151,5	50
Boshqa xarajatlar	161,4	50
Jami budjet	312,9	100

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, davlat budjeti aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlashga katta e'tibor qaratgan. Ijtimoiy xarajatlar qismi budjetning yarmini tashkil etishi bilan barqaror rivojlanish strategiyasini amalga oshirishda markaziy rol o'ynaydi.

Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari va xarajatlari (budjetlararo transfertlar hisobga olinmagan holda) mos ravishda 55,2 trillion so'm va 85,8 trillion so'mni tashkil etadi. Bu mablag'larning tafovuti quyidagicha:

$$T a f o v u t = X a r a j a t l a r - D a r o m a d l a r = 85,8 - 55,2 = 30,6 \quad (2)$$

Tafovut mablag'larning jamg'armalar orqali ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish va davlat strategik maqsadlarini amalga oshirishda qo'llanilishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, jamg'armalarning daromadlari va xarajatlarining balansini ta'minlash budjetning barqarorligini oshiradi.

Soliq siyosatida bir qator o'zgarishlar amalga oshirilgan. Masalan:

Alkogol va tamaki mahsulotlari importi uchun aksiz solig'i stavkasi 5% ga pasaytirildi,

Yer qaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh uchun 2 baravarga pasaytirildi.

Ushbu o'zgarishlar daromadlarni oshirish, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va ichki ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Buni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$D a r o m a d = B a z a v i y \ s o l i q \times (1 + \Delta S t a v k a \%) \quad (3)$$

Bu yerda $\Delta Stavka\%$ – soliq stavkasidagi o'zgarish foizi. Masalan, aksiz solig'i pasaytirilganda, daromadlar kamayadi, ammo iqtisodiy faollik oshishi orqali uzoq muddatda budjetga qo'shimcha daromadlar kelishi kutiladi [8].

Budjet daromadlarini oshirish va yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirishga qaratilgan choralar ham muhim ahamiyatga ega. Bu orqali:

Budjet mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanish,

Ajratilgan mablag'larning natijadorligini oshirish,

Soliq siyosati orqali sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish,

Tabiyatni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash kabi maqsadlar amalga oshiriladi.

Shunday qilib, 2024-yilgi davlat budjeti defitsitli bo'lsa-da, ijtimoiy yo'nalishlarga e'tibor qaratilishi va soliq siyosati orqali daromadlar bazasini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar mavjudligi ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, budjetning ijtimoiy xarajatlari va jamg'armalardagi mablag'lar o'rtasidagi balansni hisoblash orqali davlat iqtisodiy strategiyasining samaradorligini tahlil qilish mumkin. Misol uchun, ijtimoiy xarajatlarning umumiy xarajatlardagi ulushi:

$\% \text{Ijtimoiy Xarajatlar} = \frac{151,5}{312,9} \times 100 = 48,5\%$

(4)

Bu raqam davlatning aholining hayot sifati va ijtimoiy barqarorlikni oshirishga qanchalik e'tibor qaratganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xarajatlarning strategik yo'nalishlarga taqsimlanishi davlat siyosatining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi [9].

Shunday qilib, 2024-yilgi davlat budjeti defitsitli bo'lsa-da, ijtimoiy yo'nalishlarga katta e'tibor qaratilgan. Soliq siyosati va maqsadli jamg'armalar orqali daromadlar bazasi kengaytirilyapti, iqtisodiy faollik rag'batlantirilmogda va ekologik hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Bu holat, budjetning ijtimoiy va iqtisodiy vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishi uchun muhim shart-sharoitlarni yaratadi.

2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti daromadlari 270,4 trillion so'm, xarajatlari esa 312,9 trillion so'mni tashkil etishi rejalashtirilgan [6]. Ushbu hisob-kitobdan ko'rinib turibdiki, budjetda 42,5 trillion so'm defitsit mavjud. Defitsit mavjudligi davlatning moliyaviy siyosatini muvozanatlash va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalarini muhokama qilishga zamin yaratadi. Muhokama jarayonida senatorlar, bir tomondan, ijtimoiy sohalarni moliyalashtirish zarurligini, boshqa tomondan, defitsitni kamaytirish va budjet mablag'larini samarali taqsimlashning strategik yo'llarini ko'rib chiqdilar.

Budjet xarajatlarining yarimidan ortig'i ijtimoiy yo'nalishlarga yo'naltirilgani ijtimoiy barqarorlik va aholining hayot sifati oshirishga qaratilgan siyosatning asosiy elementi ekanini ko'rsatadi.

Muhokama jarayonida ta'kidlanganidek, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va madaniyat sohalariga ajratilgan mablag'lar nafaqat inson kapitalini rivojlantiradi, balki iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shadi. Shu bilan birga, ijtimoiy xarajatlar hajmini oshirish defitsitning oshishiga olib kelishi mumkinligi, shuning uchun mablag'larni taqsimlashda samaradorlik va natijadorlikni o'lchashning muhimligi qayd etildi.

Senatorlar tomonidan muhokama qilingan muhim masala – soliq stavkalari va iqtisodiy rag'batlar tizimi. Masalan, alkogol va tamaki mahsulotlari importi uchun aksiz solig'i pasaytirilishi (5%) ichki ishlab chiqarishni rag'batlantirish va bojxona yukini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasining sement ishlab chiqarishga mo'ljallangan ohaktosh uchun 2 baravarga kamaytirilishi sanoat faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Muhokama davomida bu choralarning qisqa muddatda budjet daromadlarini kamaytirishi, lekin uzoq muddatda ichki ishlab chiqarish va ish o'rinlarini oshirish orqali daromadlarni kompensatsiya qilishi kutilayotgani qayd etildi.

Davlat maqsadli jamg'armalari daromadlari va xarajatlari mos ravishda 55,2 trillion so'm va 85,8 trillion so'mni tashkil etadi. Muhokama jarayonida senatorlar jamg'armalarning ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirishdagi rolini alohida ta'kidlashdi. Ushbu jamg'armalar orqali uy-joy ta'minoti, ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash kabi ijtimoiy muammolarni hal qilish mumkin. Muhokamada shuningdek, jamg'armalardagi mablag'lar samaradorligini oshirish, ularning maqsadli ishlatilishini nazorat qilish zaruriyati muhokama qilindi [10].

Budjetning muhokamasida "O'zbekiston-2030" strategiyasi va milliy barqaror rivojlanish maqsadlari muhim o'rin egalladi. Muhokama shuni ko'rsatdiki, budjet resurslarini ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirish davlat strategiyasining markaziy elementidir. Shuningdek, yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirish, ajratilgan mablag'larning natijadorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalari senatorlar tomonidan alohida ko'rib chiqildi.

Xulosalar. Olib borilgan tadqiqot natijisida quydagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasi

davlat budjeti muhokamasidan ko'rinib turibdiki, davlatning moliyaviy siyosati ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishga qaratilgan. Budget daromadlari 270,4 trillion so'm, xarajatlari esa 312,9 trillion so'mni tashkil etishi natijasida yuzaga kelgan 42,5 trillion so'm defitsit davlat mablag'larini samarali taqsimlash va soliq siyosatini optimallashtirishni talab qiladi.

Budget xarajatlarining yarimidan ortig'i ijtimoiy sohalarga yo'naltirilishi (ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya, madaniyat va sport) aholining hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, davlat maqsadli jamg'armalari orqali uy-joy ta'minoti, ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash kabi ijtimoiy muammolar samarali hal etiladi.

Muhokama jarayonida soliq siyosatidagi o'zgarishlar – alkogol va tamaki mahsulotlari aksizining kamaytirilishi, yer qaridan foydalanganlik soliqlarining pasaytirilishi – ichki ishlab chiqarishni rag'batlantirish va ish o'rinlarini oshirishga qaratilganligi qayd etildi. Bu choralarning qisqa muddatda budget daromadlarini kamaytirishi mumkin, lekin uzoq muddatda iqtisodiy samaradorlikni oshirishi kutilmoqda.

Shuningdek, budget "O'zbekiston-2030" strategiyasi va barqaror rivojlanish milliy maqsadlariga mos ravishda shakllantirilganligi, yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirish va ajratilgan mablag'larning natijadorligini oshirishga e'tibor qaratilganligi qayd etildi.

Umuman olganda, 2024-yil uchun budget rejalari ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, aholining farovonligini oshirish va davlatning strategik maqsadlariga erishish nuqtai nazaridan asosli va muvozanatli hisoblanadi. Shu bilan birga, budget defitsiti va mablag'larning samarali ishlatilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Salamon L.M. The Nonprofit Sector: A Research Handbook. — Baltimore: Johns Hopkins University Press, 1999.

World Bank. Financial Management and Accountability in Nonprofit Organizations. — Washington D.C., 2015.

European Commission. Transparency and Accountability of Non-Profit Organisations. —

Brussels, 2017.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Rasmiy ma'lumotlar, ochiq axborot manbalari // <https://adliya.uz/> – Toshkent, 2024. –

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. Buxgalteriya hisobi to'g'risida Qonun // <https://lex.uz/docs/> – Toshkent, 2016.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati. 48-yalpi majlis bayonnomasi: 2024-yil uchun davlat budjeti muhokamasi [Elektron resurs] // "Daryo" / Madina Nurman. – Toshkent, 2023. – URL: <https://daryo.uz/> (sana kirish: 06.01.2026).

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Moliyaviy hisobot va budget siyosati bo'yicha ma'lumotlar // www.mf.uz. – Toshkent, 2024.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Davlat budjeti to'g'risidagi qonun va hisobotlar. – Toshkent, 2024.

Karimov I. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazorat. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021. – 312 b.

O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy ko'rsatkichlari // www.stat.uz. – Toshkent, 2024.

IFRS. International Financial Reporting Standards. – London, 2020. – 420 p.

Abdullayev A., Islomov N. Davlat budjeti va soliq siyosati tahlili. – Toshkent: Moliyaviy Tadqiqotlar, 2022. – 256 b.